

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Pedagogika” fakulteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrası

Tasviriy san’at tarixi fanidan

KURS ISHI

Mavzu: “O’zbekiston xalq rassomi Bahodir Jalolov ijodi.”

Bajardi: 2“A” guruh talabasi

Ortiqova Maftuna

Ilmiy rahbar:

S.S.Abdullaev

Buxoro-2016

Mavzu: “O‘zbekiston xalq rassomi Bahodir Jalolov ijodi.”

Reja:

I. Kirish

O‘zbekiston tasviriy san’atida rassomlar ijodi.

II. Asosiy qism

2.1. Rangtasvir san’ati va unda ijod qilgan rassomlar haqida ma’lumot.

2.2. Bahodir Jalolov- O‘zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy

nomidagi Davlat mukofotinnng sovrindori

2.3. Mustaqillik yillarida rangtasvir san’ati

2.4. Nafis san’at. Rangtasvir san’ati

2.5. O‘zbekistonda tasviriy san`at va kompozitsiya maktablarining rivojlanish tarixi

III. Xulosa

IV. Ilova

V. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

I. KIRISH

O'zbekiston tasviriy san'atida rassomlarimiz ijodi.

O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atni taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko'pgina janrlari rassom va xaykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlar keng tus oldi. Sobiq Ittifoq davrida ijodkorlar yagona sotsialistik realizm oqimida ijod qilgan bo'lsalar, hozir ular ham ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirirayotgan avangardizm, romantizm, impresionizm, abstrakstionizm va boshqa qator oqimlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyada asarlar yaratmoqdalar.

Mamlakatimizda tasviriy san'atning taraqqiyotiga O'zbekiston badiiy Akademiyasini tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur Akademiya qoshida Komoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, ko'plab rassomchilik, dizayn kollejlari, "San'at" jurnali faoliyat ko'rsatmoqda. Milliy rassomchilik va dizayn institutida, tasviriy san'at yo'nalishlardagi kollejlarda jaxon standartlariga mos keladigan milliy kadrlar etishib chiqmoqda va ular O'zbekiston san'atini yangi bosqichiga olib chiqishi shubhasizdir.

Mustaqillik yillarida ijod qilayotgan rassom va xaykaltaroshlarimizning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo'liga o'tganliklari bo'lsa ikkinchidan milliy badiiy an'analarni davom etdirish, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, asarlarda yangi, zamonaviy, ilg'or tasviriy texnologiyalarni qo'llash kabi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Mustaqillik ne'matidan baxramand bo'lgan keksa va o'rta avlod rassomlarimiz ijodida ham ijodiy ko'tarinlik ko'zga tashlanadi. Uni M.Saidov, N.qo'ziboev, M.Boboev, V.Burmakin, M.Yo'ldoshev, J.quttimurodov, T.Mirjalolov, T.Kuryozov, A.Ikromjonov, J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Mirzaev, Z.Faxriddinov, R.Xudayberganov, A.Mo'minov, A.Nuriddinov kabi rassom va xaykaltaroshlar ijodida ko'rish mumkin. 75-rasm.

Milliy istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan bunday portret janridagi yaratilgan asarlar qatoriga Amir Temur, Alisher Navoiy, Jamoliddin Manguberdi, Kamoliddin Bexzod, Nodirabegim, Bibixonim, Spitamen portretlarini kiritish mumkin.

Manzara va natyurmort janrlarida samarali ijod qilayotganlardan orasida L.Salimjonova, A.Mo'minov, S.Abdullaev, I.Xaydarov O.qozoqov, /.Abduraxmonov, A.Mirsoatov kabi rassomlarni ko'rsatish mumkin. 76-rasm.

Ularning asarlari Vatan jamoli, uning meva va sabzavotlari yuksak badiiy saviyada ishlangan bo'lib, yoshlarni Vatanni sevishtga, ni asrab avaylashga, uni ko'paytirishga undaydi, tabiatdagi nafosatdan zavqlanishga chorlaydi.

Tarixiy, turmush va boshqa janrlarda yaratilgan asarlar orasida B.Jalolovning "Oltin asr", "Koinot ustunlari", "Abadiyat gumbazi ostida", S.Alibekovning "aroyib sharbat xidi", J.Umarbekovning "Zilzila", "Havorang musiqachilar", V.Oxunovning "Buddaning tongi sayri" kabilar diqatga sazovordir. 77-rasm.

A.Isaev, J.Usmonov, A.Roziqov, R.Temurov, T.Axmedov, T.Karimov, Sh.Abduraxmonov, B.Ismoilov, /.qodirov kabi yosh rassomlar ham barakali ijod qilmoqdalar. Ularning ijodiy ishlarida reallik, oydinlik, sharqona nafislik, umumiy falsafiy tafakkur, badiiy ko'rkamlik, tugallik, sokinlik va ijodkorlik to'la o'z ifodasini topadi.

Chingiz Axmarovning nomi bilan bog'liq mahobatli rangtasvir bu davrda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Respublikamizning ko'plab jamoat va madaniy binolari, shu qatori Toshkent metrosi bekatlariga ishlangan devoriy suvrat, mozaika, vitrajlar halqimizga estetik zavq bag'ishlamoqda.

Bu borada A.Aliqulov, B.Olimxonov, A.Ikromov, A.Isaev, E.Muhammadiev, N.Sultonov, N.Xolmatov, Sh.Muhammadjonov, A.Buxorboev, T.Boltaev, X.Nazarov kabilar ustozlari an'analarni davom etdirib yangidan-yangi muvaffaqiyatlarni erishmoqdalar.

Mozaika, vitraj bo'yicha B.Jalolov, A.Buxorboev, V.Gan, I.Egorovlar barakali ijod qilishib "Umar Xayom tushi", "Nimaga tug'ilganimni xech kim aytmaydi", "Navro'z", "Tuman ma'budasi", "Abadiyat gumbazi ostida", "Buyuk

soxibqiron-buyuk bunyodkor”, “Sport o’yinlari tarixi”, “Buyuk ipak yo’li”, “Flora” kabi asarlar yaratdilar.

O’zbekistonda rangtasvir san’ati o’z taraqiyotining yangi bosqichiga ko’tarilmoqda va iqtidorli yosh rassomlar etishib chiqmoqda.

O’zbekistonda xaykaltaroshlik tasviriy san’atning mustaqil turi sifatida o’zining yangi taraqiyot bosqichini o’tamoqda.

Mustaqillik yillarida o’zbek xaykaltaroshlaridan I.va K.Jabborovlar, K.Norxo’rozov, J.quttimurodov, E.Aliev, A.Raxmatullaev, N.Bondeladze, V.Degtyarov, L.Ryabstev, J.Mirtojiev, U.Mardievlarning samarali mehnat qildilar. Bu xaykaltaroshlarning asarlari orasida o’zining yuksak badiiyligi bilan J.Mirtojievning “Abdulla qodiriy nomli ishi ajralib turadi.

Ular orasida E.Aliev, N.Bandeladze, V.Degtyarovlarning Toshkentdagi milliy bog’ uchun yaratilgan “Alisher Navoiy” (1991) nomli yodgorlik xaykali, A.Raxmatillaev va P.Podosinnikovlarning Navoiy shahriga o’rnatilgan Alisher Navoiy xaykali (2001). I.Jabborov va K.Jabborovlarning Toshkentning Amir Temur xiyoboniga o’rnatilgan Amir Temur xaykali (1993), Shaxrisabz shahrida o’rnatish uchun yaratgan Amir Temur xaykallari (1996) o’zining yuksak badiiyligi bilan diqatga sazovordir.

I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan yaratilgan Amir Temur xaykali (1996) uning 660 yilligi munosabati bilan Shaxrisabzda o’rnatildi. Xuddi shu mualliflarning Axmad Al-Farg’oniya bag’ishlangan ishi 1998 yilda Farg’ona shahri uchun bunyod etildi.

Xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi obrazi (1998) I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan yaratildi va u Urgench shahrini bezab turibdi. 79-rasm.

Iqtidorli xaykaltarosh R.Mirtojiev tomonidan Andijon shahrida o’rnatish uchun yaratilgan Zaxiriddin Muhammad Bobir, Cho’lpon xaykallarini Toshkent shahri uchun mo’ljallangan Abdulla qodiriy, Jizzax shahri uchun “Ona” yodgorlik-xaykallari o’zining yuksak badiiyligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

1999 yilda o’zbek xalq dostoni “Alpomish” ning ming yilligi nishonlandi. Bu sanaga bag’ishlab A.Raxmatullaev va boshqalar tomonidan yodgorlik majmuaini

yaratdilar. Unda Alpomish bilan bir qatorda Barchinoy va Yodgor obrazlari ham aks etdirilgan va u Termiz shahrida o'rnatildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek grafik rassomlarining ijodida milliylik va zamonaviylik uyg'un rivojlanayotganligi yaqol ko'zga tashalanadi. Keksa va o'rta avlod rassomlari q.Basharov, T.Muhamedov, M.Kagarov, M.Sodiqovlar bilan bir qatorda V.Apuxtin, /.Boymatov, A.Mamajonov, B.Ismoilov, D.O'razaev, S.Isxoqov, T.Ayupov, T.Axmadaliev, R.Azizov, T, G.Sultonova, L.Ibragimov kabilar samarali mehnat qilmoqdalar. Ular tomonidan kitob grafikasi, plakatga doir asarlari mazmuni va g'oyaviyligi bilan diqatga sazovordir. Bunni V.Apuxtinning "Koinot-inson", /.Boymatovning "Urgutda to'y", A.Mamajonovning "Kurash", "Eski shahar", T.Ayupovning "Mavzu", T.Axmadalievning "Senga omad Temur", L.Ibragimovning "Osiyo okeani", "Bahor", M.Sodiqovning "Buxoro", S.Redkinning "Eski Samarqand", N.Kolonovning "Kulol", Sh.Muxammadjonovning Maxmud qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" nomli asarlarida ko'rish mumkin .

II. Asosiy qism

2.1. Rangtasvir san'ati va unda ijod qilgan rassomlar haqida ma'lumot.

Rangtasvir juda qadimiy san'at. Uning asoslari qoyadagi tasvirlardan boshlanadi. Antik davr rassomlari rangtasvir asarlarida juda katta ta'sirchanlikka erisha olishgan, bu naturaga katta diqqat e'tibor qarashdan, shu bilan birga rangtasvir texnologiyasiga kiritilgan yangiliklar bilan bog'liq bo'lgan. O'rta asrlarda turli janrlardagi kartinalarning yaratilishi rangtasvir tarixini boyitdi. Keyingi yuz yilliklardagi turli oqim va yo'nalishlarda ijod qiluvchi rassomlarning ijodiy izlanishlari juda ko'plagan yangi rangtasvir oqimlarini (realizmdan abstraktsionizmga) vujudga keltirdi.

Inson xayotida rangning ahamiyati katta. Biz kuz ungimizda nimani kursak shuni rangda va rang orkali ko'ramiz. Jamiyatda inson uchun rangning roli muhim bo'lib, inson ruhiyatiga katta ta'sir etadi. «Umumiy rang, -deb yozadi, Gyote,- odamlarda katta quvonch uyg'otadi». Xalq didida go'zallik xakidagi tushuncha rang bilan bog'liq. Ular xalk amaliy san'atida o'z aksini topgan va xalk bayramlarida xam rang-barang kurinishlarni tomosha kilishimiz mumkin.

Rang o'zi nima? U qaerdan paydo bo'ladi, nimalardan tuzilgan? Inson ruxiyatiga tasir qiluvchi rangning xususiyati nimadan iborat? Tasviriy san'at asarida va tabiatda rangning estetik ta'siri, idrok kilish qonunlari mavjudligi, ular qanday? Rangning shakl chiziqlariga, yorug'-soyaga munosabati qanday? Rang majmuasa nima? Kolorit nima? Tasviriy san'at nazariyasi oldida turgan shunga o'xshash rang bilan bog'lik savollar o'z yechimini topishi kerak.

Bu savollar ustida kadimdan dunyoning kupgina olimlari izlanish olib borganlar. Rang muammosi xakida xozirgi vaktida xam kupgina fan soxalarida ilmiy ishlar olib borilmokda. Fizika fani rang tabiiy kuvvati bilan kiziksa, fiziologiya –odam kuzi orkali yorug'ni sezib rangga aylantirishni, psixologiya-rangni idrok kilish muammosi va uning inson ruxiyatiga ta'sir kilib xar xil xis-tuygu xosil kilishi, biologiya-tirik jonivorlar xayotida rangning roli va ahamiyati

bilan

qiziqadi.

Ranglar garmoniyasi, kolorit, kontrastlar mavxumiy ranglarning guzal birikmasi xakikatan tabiatda mavjud va rassomlar idrok kiladi, umumlashtiradi, kayta-kayta yoki uzgacha kabul kiladi. Bu ma'noda tabiat (yoki natura) rassomlar uchun asosiy rang his qilish manbai hisoblaiadi. Rassom asar yaratar ekan ranglarni o'z didiga, uslubiga, maqsadiga buysundirgunga qadar izlaydi. Uning tagida albatta rang tushunchasi. Rang nazariyasi va qonuni etadi. Mukammal rang nazariyasiga va amaliyotiga ega bulgan rassom rang orkali badiiy obraz yaratishga erishadi.

Kompozistiyada xam rang katta urinda turadi . Rassom kanday asar yaratmasin birinchi navbatda rangga e'tibor berishi, izlanishi muvaffakiyat keltirishi mumkin. Ushbu asarda yosh rassomlar uchun tasviriy san'atning rangtasvir yunalishidagi ba'zi rang muammosi va kirralari xakida fikr yuritishga xarakat kilindi. Rangtasvir savodxonligi nazariyasini doimiy ravishda o'rganib borish tasviriy san'at ta'limi muvaffakiyatini ta'minlovchi muxim shartlardan biri xisoblanadi. Rangtasvirning mustaxkam nazariy qonun – qoidalariga tayanibgina, yosh rassom amaliy kunikmalarga ega bulishi mumkin va ijod yuliga kirib boradi.

«Nazariyasiz amaliyotga kirib borgan kishi, - deb yozadi Leonardo da Vinchi, - kompassiz yulga chikkan dengizchiga uxshaydi va kayokka ketayotganligini uzi xam tuzukrok anglab etmaydi. Amaliyot xamisha yaxshi ishlab chikilgan nazariyaga tayanishi lozim va nazariyasiz rangtasvirning muvaffakiyatini xech kachon ta'minlab bulmaydi»

Rangtasvirchi rassom D.N.Kardovskiy quyidagilarni yozgan edi. «... san'atni urganayotganlar ifoda usullari va qoidalariga buysunishlari, shakl, rang, tus, xususiyat, xarakat, mutanosiblikni bera olishi, ularning qonuniyatlarini bilishi lozim».

Tasviriy san'at tarixida rangtasvirga urgatishning amaliyoti bilan boglik katta tajriba tuplangan. Uslubiy adabiyotda texnik va texnologik maslaxatlar bilan boyitilgan kimmatli ma'lumotlar tuplangan. Nazariyaga kelsak, bu soxada tarixiy meros

etarli

emas.

Keyingi yillarda tasviriy savodxonlik nazariyasini ukitishga kuprok e'tibor berilmokda. Bir kator uslubiy kullannmalar chop etildi, ularda chizma maxoratning ayrim nazariy yunalishlari yoritib berilgan: xususan yorug-soya, ranglar, xavoii perspektiva qonuniyatlari shular jumlasidandir. Ammo bu kullannmalarning mazmuniga e'tibor beriladigan bulsa, ma'lum etishmovchiliklarni kurish mumkin. Gap shundaki, talaba yoritish, muxit, xavoii perspektiva asosida narsalar rangini kanchalik tushunib va anglab etmasin, u xakikiy rangtasvirchi bulib etisha olmaydi. Negaki bularning barchasi bilan chizmatasvir va rangtasvir nazariyasining asosiy masalalarini xal etib bulmaydi.

Rassom tafakkur butunligini kurish orkali anglash kobiliyatiga ega bula boshlagandagina realistik rangtasvir maxoratini egallashga kirishadi. Unlab mashxur rassomlarni tarbiyalab etishtirgan tajribali rassom-pedagog D.N.Kardovskiy ta'biri bilan aytganda, «xam postanovkada va xam ish jarayoniga raxbarlik kilayotganda rang munosabatlarini tugri topishga karatish muximdir... xar vakt munosabatlar asosida tafakkur yuritish va ishlashga urganish zarur».

Ta'lim jarayonida talabalar eng avvalo rangtasvirning tus va ranglar munosabati va ularni belgilash usulidek asosiy qonunni egallashlari zarur. Aynan shu rangtasvir nazariy kursining asosiy moxiyatini tashkil etishi zarur.

Bulardan tashqari rangtasvir ta'limining nazariy kursi tarkibiga chizmatasvirning rangtasvirdagi etakchi roli, xavoii perspektiva, yorug-soya qonunlari, tasviriy yuzada tasvirlanayotgan ashyolarning xajmiy, moddiy, makoniyl sifatlarini etkazish qoidalari, tasvirni tus va rang butunligiga erisha olish singari masalalar xam kiritilishi zarur. Chiziqlar va bitta rangda (buyokda) xam ajoyib portret yoki kartina yaratish mumkin. Ammo realistik dastgoxli rangtasvirda, rangli, xavoii va borlikni xakkoniyl tasvirlash tili, usuli tasviriy san'atning negizi hisoblanadi. Hajmini, materialini, buyumlarining bir-biri bilan boglikligini biz perspektivada, yorug va soyada shuningdek rangda kuzatamiz, kuramiz. Material va xajm idrok kilish shakl yuzasini rang-barangligini va yorug – soyaning xilma-xilligiga boglik. Shakl ranglari kuzimizdan uzoklashgan sari uzgarib, birinchi

plandagisi ikkinchi plandagisidan fark kiladi. Shuning ranglar kuchi, tusi xam uzgaradi.

Biz xayotda kuzatgan narsalar rangini xolstda yoki kogoza aks kilayotganimizda ularning guzal, ta'sirchan kilib yaratishimiz mumkin. Biz bunda narsalarning (shakl) rangini emas, ularni bizning kuzimizga kanday kurinishini xisobga olgan xolda tasvirlaymiz. Ya'ni jismlarni xavoiiy perspektiva orkali kuringan ranglar yordamida aks ettiramiz. Bizga kuringan ranglar jism xakikiy rangidan ancha fark kilishi mumkin. Barcha kuringan jism rangi uning yakin yoki uzakda turishiga, rangiga, yoruglik kuchiga va tevarak – atrof ta'siriga xam boglik. Shuning bilan birga ravshanligi, rangi va rang tuygunlik kuchi xam uzgaradi.

Rangtasvir san'atida kurish kobiliyatini mutaxassislarcha yulga kuyish muammosi muxim axamiyat kasb etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, rangtasvirda portret bajarish, rang munosabatlari naturada rang turi, tusi va rang tuyinganligi kabi uch xususiyatni qiyoslash orqali belgilanadi. Bu uch xislat har qanday rangning tula xususiyatini ifodalovchi asos xisoblanadi. Ammo portret qismlarining rang munosabatlarini belgilash ularni ko'zimiz ketma-ket ko'rganligi sababli ham murakkablashib qoladi. Agar ish jarayonida biz nigohimizni portretdagi birgina kismidan biriga keyin esa boshkasiga utkazsak va ularni bir-biri bilan takkoslab umumlashtirmasak xakikiy nigoxxiy obrazni kurmaymiz, rang munosabatalrini tugri belgilay olmaymiz. Har bir detal o'zicha tugri tasvirlangan bulsada, bunda rangtasvir maxorati kurinmaydi, ular orasidagi bogliklik sezilmaydi.

Naturaning tus va rang munosabatlarini tugri belgilash uchun naturaga yaxlit nigox tashlashni urganish zarur. Masalan, derazada turgan guldastani ifodalash uchun ochiq turgan deraza, uning ortidagi kurinish barchasini nigohan kamrab olish kerak bo'ladi.

Tasvirning xar bir bulagi ishlanayotgan paytda xam natura guruxi yoki butun naturani yaxlit kurishga intilish lozim. Fakat yaxlit kurish chogidagina naturadagi

rang munosabatarini tugri idrok etish va tasvirlash mumkin. XVIII asr ingliz rassomi D.Reynolde shunday yozadi: «Rassom naturani yaxlit kura olmas ekan, uni na chizmatasvirda, na rang, na xajmda tasvirini moxirlik bilan bera oladi».

Naturani yaxlit kurish va bir paytda barcha kislarni kiyoslay olish kobiliyatini xosil kilish-rangtasvir ta'limining muxim vazifasidir. Agar yosh rassom bunday maxsus kunikmaga ega bulmas ekan, unga beriladigan keyingi ta'lim ijobiy natija bermaydi. Aynan yaxlit kurish va ranglar munosabatlari bilan ishlash kobiliyati xakikiy rassomni xavaskordan ajratib turadi.

Naturaga keng va yaxlit karash uchun rassomlar quyidagi amaliy usullarni ishlab chikkan: barcha jixatni nazardan kochirmaslik; kuzatish chogida barcha naturaga kuzni kisib karash. Kuz kisilganda kuzga tushayotgan yoruglik mikdori kamayadi. Natijada okshom paytidagi kabi ikkinchi darajali narsalar nigoxdan nari kilinadi.

Rang munosabatarini tugri baxolash uchun oddiy ramkadan foydalanish mumkin. Naturaning kurinadigan kismini ramkaga olib, uni yaxlit kurish mumkin. Shuningdek kartondan tugri turtburchak teshik xosil kilib undan naturaga karash mumkin. Bunda naturaga teshik orkali karaganda xuddi kogoza aks etgandek teshik yuzasi proekstiyasida kurish kerak. Oddiy karashda buyumlar guruxi kurulgan bulsa, endi ular rangli rasmga aylanadi. Naturaning asosiy rang munosabatlaridan iborat yaxlit rangtasvir obrazi xosil buladi.

Mustaqillik davri rangtasvir san'ati badiiy uslublar ko'lami kengligi bilan ajralib turadi. Akademik realizm, dekorativizm, milliy romantizm, abstrakstionizm, instalyastiya kabi usul va yo'nalishlar ijodiy dunyoqarashning kengayishidan dalolat beradi. Tasviriy san'atning turli sohalarini rivojlanishida 1997 y. O'zbekiston Badiiy Akademiyaning tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy Rassomlik va dizayn instituti, Respublika Badiiy kolleji va listey-internati, barcha viloyatlar va Qorakalpog'istonda tasviriy va amaliy san'at o'quv yurtlaridan iborat tarmoq, vujudga keldi. Badiiy Akademiya tashkil bo'lganidan so'ng ko'rgazmalar faoliyati jadallashdi, o'zbek rassomlari turli respublika va xalqaro

ko'rgazma, tanlov, festivallarda ishtirok etishdi. Har ikki yilda Toshkentda zamonaviy san'at Xalkqaro biennalesining o'tkazilishi o'zbek tasviriy san'atida videoart, fotoart, invayroment kabi yangi usul va shakllarni vujudga kelishiga ta'sir qildi.

O'zbekistonning mustaqilligi natijasida badiiy ijod, tasviriy san'atga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tavalludining 540 va 550 yilligi keng nishonlandi. Rassom tavalludining 545 yilligi YuNESKO qaroriga binoan xalqaro miqyosda Toshkentda o'tkazildi. Behzod nomidagi muzeyga asos solindi. Yubileylari xalqaro miqyosda nishonlangan Alpomish, Axmad al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlarga haykallar o'rnatildi, ularga bag'ishlangan rasmlar ijod qilindi.

Istiqlol yillaridagi mahobatli san'at rivojlanishi ijodiy erkinlik, badiiy meros, boy an'analarga murojaat etilishi bilan bog'liq. Ushbu davrda yangi ma'muriy-ijtimoiy inshootlar, qo'hna binolarni qayta ta'mirlash, yangi shahar ansambllarini barpo etish ishlarining jadallashib ketishi maxobatli rangtasvirchilar yangi ifoda vositalarining izlanishiga, uziga xos badiiy echimlarning qidirib topishiga asos bo'ldi. Ushbu davrning maxobatli rangtasvir sohasida B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Aliqulov, O. Xabibullin, «Sanoyi-nafisa» guruhi, A. Buxorboev, A. Axmedshin, A. Isaev, V. Gan kabi rassomlar yorqin asarlar yaratgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning turli vohalarida tasviriy san'-atning mahalliy maktablari ravnaq topdi; Samarkand (N.Kalonov, S.Kalonov, A. Isaev), Andijon (O. Bakirov, U. Boltaev, N. Xodikov), Namangan (I. Valixujaev), Buxoro (M. Abdullaev, B. Salomov, 3. Saidjonov), Nukus (J. Izentoev, B. Aytmurodov, V. Japarov, S.Boybosinov, B. Serekeev) va boshqalar shaharlar rangtasvir markazlariga aylandi. Realistik, akademik yo'nalishda sermahsul ijod qilayotgan keksa va o'rta avlod rassomlari tarixiy va janrli suratlar, portret, manzara va natyurmortlar yaratgan. Ayniqsa, tarixiy va ramziy portret janrida faol ijod qilgan M. Nabiev (Amir Temur va Bobur portretlari), A. Abdullaev (Alisher Navoiy), Ch. Axmarov

(Forobiy, Nodira), A. Ikromjonov (Kamoliddin Behzod), M. Yo'ldoshev (Go'ro'g'li, Alpomish), E. Masharipov (Alpomish, Jaloliddin Manguberdi va b.), K. Basharov (Spitamen), T. Qo'ziev, M. Nuriddinov, S. Raxmetov (jadidlar portretlari), A. Mamatova, Akmal Hyp (Bobur) va boshqalarning suratlari diqqatga sazovor. Bu davrda A. Abdullaev, R. Axmedov, R. Choriev, T. Oganegov, V. Burmakin, R. Xudoyberganov, S. Raxmetov, Sh. Abdullaeva, Y. Tursunnazarov, I. Baxramov va b. portretnavis rassomlar zamondosh obrazlarini yaratgan.

Manzara janrida R. Axmedov, N. Qo'ziboev, R. Choriev, M. Saidov, Yu. Strel'nikov vodiya va tog'li hududlarning lirik manzaralari, V. Ziyoev, V. Enin, Yu. Taldikin, M. Toshmurodov, R. Gagloeva, Ch. Bekmirov va b. qishlok, va shaharning hayot alomat va xususiyatlarini namoyish etuvchi janrli manzaralar ijod qilgan. Istiqlol davrida romantik uslubda milliy o'ziga xoslikni talqin etish yo'lida Ch. Axmarov, A. Mirzaev, R. Sho-diev, O. Qozoqov, N. Shin, I. Valixuo'jaev, Sh. Abdullaeva, I. Mansurov va boshqa yorqin bezakdor, ba'zan shaklning erkin uyini asoslangan asarlar yaratgan. Aynan shu davrda Urta asr devoriy suratlari va miniatyura an'analari rangtasvir san'ati asarlarida qayta tug'ilib, Sh. Muxammadjonov, B. Yo'ldoshev, N. Xolmatov, T. Shoymardonova, E. Zayniddinov va boshqa rassomlar uslubining o'ziga xosligini belgilaydi. S. Alibekov, B. Jalolov, F. Boymatov, J. Umarbekov, F. Axmadaliev, A. Nur, B. Muxamedov, B. Ismoilov va bir qator boshqa rassomlar ijodida falsafiy-tahliliy va assosiativ-majoziy yo'nalishlar o'zining to'la aksini topdi. Aynan shu guruh rassomlar zamonaviy o'zbek rangtasvirining yangi uslubiyatini vujudga kelishida asosiy o'rin egallab, o'ziga xos rang va plastik echimlar, mavzuiy va g'oyaviy o'zgarishlar tufayli milliy rangtasvirning hozirgi bosqichini belgilab berdi.

Istiqlol yillarida ko'p rassomlar jahonning rivojlangan qator mamlakatlar san'ati bilan bevosita tanishishdi. Ular o'z asarlarini jahon tasviriy san'atida fonida ko'rish, tahlil qilish, yangicha izlanishlar olib borish imkoniga ega bo'ldilar. Rassomlar 1980 yillarga kelib, 1930- 70 yillarda andozaga aylangan "qoliplardan" chekinib, yangicha asarlar yaratishga erishishdi. Natijada ayrim rassomlar ijodida

ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'ldi. Dunyoning mashhur galereyalarini borib ko'rish, san'at ixlosmandlari bilan bevosita muloqotga kirishish, ijoddan moddiy manfaatdorlik rassomlar ijodida yangi sahifa ochdi. Ko'pgina rassomlarimiz zamonga moslashib, tadbirkorlik yo'lini tutdilar. Buyurtmachilar didiga moslab asarlar yaratdilar.

O'zbekistonda ijod qilayotgan rassomlar endilikda milliylikni an'analari bilan uyg'unlashtirishga intilmoqdalar. Xususan O.Qozoqov, V. Oxunov, A. Nur, B. Jalolov, A. Turdiev, K. Odilov kabi rassomlar ijodi shu jihatdan xarakterlidir.

Mustaqillikka erishilganidan keyin xalq tarixi, milliy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor ortishi tufayli L. Ibragimov, V. Oxunov, J. Usmonov kabi rassomlar tarixiy voqelikni turli shakl, ramzlarda aks ettirgan asarlar yaratishdi. M. Nabiev sohibqiron Amir Temurning ulug'vor siymosini yaratdi.

2.2. Bahodir Jalolov- O'zbekiston xalq rassomi,

Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori

Bahodir Jalolov – O'zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga hissa qo'shib kelayotgan talantli rassomlardan biridir.

Bahodir Jalolov 1948 yil 27 mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1968 yili P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini tugatgan. 1974 yilda esa I.E. Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutining bezatish monumental fakultetini tamomlaydi. Yoshlik yillarida portret san'atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta'lim oladi. Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalarida milliy his-tuyg'ular turli xil ranglarda o'z ifodasini topadi. B. Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib keyinchalik Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriev, Milnikov, Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat ko'zga aniq tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. Xususan, «Raqsnig tug'ilishi» kompozitsiyasi o'zbek raqqosalarini ulug'labgina qolmasdan, ularga bo'lgan samimiy hurmat va muhabbatni namoyon qilganini ko'ramiz.

Bahodir Jalolov portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa akademik rassom O'rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san'atning mashhur darg'alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro'ziboev kabi ulug'lar siymosi so'zimizga misoldir. Rassom inson shaxsini doimo o'rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi. Darhaqiqat, yuqorida ko'rganimizdek Bahodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy ko'lami insonlar obraziga, ya'ni portretlar yaratishga qaratilgan. Tasviriy san'atda u kishi o'z rangin olamini yangidan yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda.

Bahodir Jalolov erishgan etuklikning yana bir jihati shundaki, u Sharq va G'arb an'analarini o'zlashtirib, ana shu an'analardagi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'la olgan rassomdir. Ana shuning uchun ham xorijiy davlatlarning san'at ixlosmandlari e'tiboriga muyassar bo'lgan. Rassom o'zining monumental pannolari bilan dunyoning ilg'or davlatlarida hashamatli saroy va binolarni bezatib kelmoqda. Rassom ijodiga taniqli olim Tilab Mahmudov baho berib shunday deydi: «Bahodir uchun inson va insoniyat tarixi jumboq edi. U bu jumboqni echishga, o'z xalqi tarixini bashariyat tarixi bilan hamohang nuqtalarini topishga harakat qiladi». Darhaqiqat, rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o'rganishga intiladi.

Bahodir Jalolov (1948.27.5, Toshkent) — rangtasvir ustasi, O'zbekiston xalq rassomi (1992), O'zbekiston (1997) va Qirg'iziston (1998), I. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik in-tini tugatgan (1974). Toshkent teatr va rassomlik san'ati in-tida o'qituvchi (1974—80); 1997 y.dan Milliy rassomlik va dizayn in-tida mahobatli rangtasvir ustaxonasi rahbari, prof. (2000). O'zbekiston rassomlari uyushmasi boshqaruvi raisi (1987—92). Ijodini portretlar yaratish b-n boshlagan.

Portretlarida kishilarning kasbi haqida tasavvur beruvchi holatlar aks ettirilgan, ijodiy mehnat jarayoni, chuqur psixologik holat mahorat b-n ko'rsatilgan («Me'mor», 1972; «Masxaraboz Akrom Yusupov», 1974; «Avtoportret», 1975; «Kulol ayol. Xalq ustasi Hamro Rahimova», 1975; «Soniya va mangulik. O'rol Tansiqboev xotirasiga», 1977; «Porloqerta. Rassom Sh. Abdurashidov xotirasi», 1980; «Tiklash. Xalq ustasi Muhiddin Rahimov», 1980). 70-y. larning oxiri — 80-y.larning boshlaridan mahobatli rassomlik sohasida samarali ijod qiladi: Qarshi musiqali drama teatri binosiga, «Chimyon» sanatoriysi oshxonasi foyesiga (1981), Toshkentdagi Kinochilar uyiga (1982) ishlagan devoriy rasmlari rassomni betinim izlanayotgan, o'ziga xos uslub yaratgan rassom sifatida tanitdi. «Bahor» konstert zali foyesiga ishlangan «Raqsnig tug'ilishi» (1982), Qashqadaryo viloyati Tallimarjon nasos stanstiyasi klubi devoriga (1983), Qo'qon teatri foyelariga

(1987), Tojikistonning Xo'jand sh.dagi maktab binosiga (1988), Belgiyaning Kortreyk sh.dagi «Kortreyk 200» (1990), Toshkentdagi Turkiston saroyiga («Umar Xayyom tushlari», 1993) va b.ga ishlangan devoriy rasmlar, manzaralar («Isfarada bahor», «Tog' qishlog'i. So'qmoq», «Eski Gurzuf ko'chasi» va b.), kitoblarga yaratilgan illyustratsiyalar (Navoiy, T. Tula, U. Nosir va b. asarlari), dastgoh kartinalari («Afg'oniston — 83», «Afg'oniston tongi» va b.) muallifidir. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti lauriyati.

2.3. Mustaqillik yillarida rangtasvir san'ati

Mustaqillik davri rangtasvir san'ati badiiy uslublar ko'lamini kengligi bilan ajralib turadi. Akademik realizm, dekorativizm, milliy romantizm, abstrakstionizm, instalyastiya kabi usul va yo'nalishlar ijodiy dunyoqarashning kengayishidan dalolat beradi. Tasviriy san'atning turli sohalarini rivojlanishida 1997 y. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy Rassomlik va dizayn instituti, Respublika Badiiy kolleji va listey-internati, barcha viloyatlar va Qorakalpog'istonda tasviriy va amaliy san'at o'quv yurtlaridan iborat tarmoq, vujudga keldi. Badiiy Akademiya tashkil bo'lganidan so'ng ko'rgazmalar faoliyati jadallashdi, o'zbek rassomlari turli respublika va xalqaro ko'rgazma, tanlov, festivallarda ishtirok etishdi. Har ikki yilda Toshkentda zamonaviy san'at Xalqaro biennalesining o'tkazilishi o'zbek tasviriy san'atida videoart, fotoart, invayroment kabi yangi usul va shakllarni vujudga kelishiga ta'sir qildi.

O'zbekistonning mustaqilligi natijasida badiiy ijod, tasviriy san'atga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tavalludining 540 va 550 yilligi keng nishonlandi. Rassom tavalludining 545 yilligi YuNESKO qaroriga binoan xalqaro miqyosda Toshkentda o'tkazildi. Behzod nomidagi muzeyga asos solindi. Yubileylari xalqaro miqyosda nishonlangan Alpomish, Axmad al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlarga haykallar o'rnatildi, ularga bag'ishlangan rasmlar ijod qilindi.

Istiqlol yillaridagi mahobatli san'at rivojlanishi ijodiy erkinlik, badiiy meros, boy an'analarga murojaat etilishi bilan bog'liq. Ushbu davrda yangi ma'muriy-ijtimoiy inshootlar, ko'xna binolarni qayta ta'mirlash, yangi shahar ansambllarini barpo etish ishlarining jadallashib ketishi maxobatli rangtasvirchilar yangi ifoda vositalarining izlanishiga, uziga xos badiiy echimlarning qidirib topishiga asos bo'ldi. Ushbu davrning maxobatli rangtasvir sohasida B. Jalolov. J. Umarbekov,

A. Aliqulov, O. Xabibullin, «Sanoyi-nafisa» guruhi, A. Buxorboev, A. Axmedshin, A. Isaev, V. Gan kabi rassomlar yorqin asarlar yaratgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning turli vohalarida tasviriy san'-atning mahalliy maktablari ravnaq topdi; Samarkand (N.Kalonov, S.Kalo-nov, A. Isaev), Andijon (O. Bakirov, U. Boltaev, N. Xodikov), Namangan (I. Valixujaev), Buxoro (M. Abdullaev, B. Salomov, 3. Saidjonov), Nukus (J. Izentoev, B. Aytmurodov, V. Japarov, S.Boybosinov, B. Serekeev) va boshqalar shaharlar rangtasvir markazlariga aylandi. Realistik, akademik yo'nalishda sermahsul ijod qilayotgan keksa va o'rta avlod rassomlari tarixiy va janrli suratlar, portret, manzara va natyurmortlar yaratgan. Ayniqsa, tarixiy va ramziy portret janrida faol ijod qilgan M. Nabiev (Amir Temur va Bobur portretlari), A. Abdullaev (Alisher Navoiy),

Ch. Axmarov (Forobiy, Nodira), A. Ikromjonov (Kamoliddin Behzod), M. Yo'ldoshev (Go'ro'g'li, Alpomish), E. Masharipov (Alpomish, Jaloliddin Manguberdi va b.), K. Basharov (Spitamen), T. Qo'ziev, M. Nuriddinov, S. Raxmetov (jadidlar portretlari), A. Mamatova, Akmal Hyp (Bobur) va boshqalarning suratlari diqqatga sazovor. Bu davrda A. Abdullaev, R. Axmedov, R. Choriev, T. Oganegov, V. Burmakin, R. Xudoyberganov, S. Raxmetov, Sh. Abdullaeva, Y. Tursunnazarov, I. Baxramov va b. portretnavis rassomlar zamondosh obrazlarini yaratgan.

Manzara janrida R. Axmedov, N. Qo'ziboev, R. Choriev, M. Saidov, Yu. Strel'nikov vodiya va tog'li hududlarning lirik manzaralari, V. Ziyoev, V. Enin, Yu. Taldikin, M. Toshmurodov, R. Gagloeva, Ch. Bekmirov va b. qishlok, va shaharning hayot alomat va xususiyatlarini namoyish etuvchi janrli manzaralar ijod qilgan. Istiqlol davrida romantik uslubda milliy o'ziga xoslikni talqin etish yo'lida Ch. Axmarov, A. Mirzaev, R. Sho-diev, O. Qozoqov, N. Shin, I. Valixuo'jaev, Sh. Abdullaeva, I. Mansurov va boshqa yorqin bezakdor, ba'zan shaklning erkin uyinigaga asoslangan asarlar yaratgan. Aynan shu davrda Urta asr devoriy suratlari va miniatyura an'analari rangtasvir san'ati asarlarida qayta tug'ilib, Sh.Muxammadjonov, B. Yo'ldoshev, N. Xolmatov, T. Shoymardonova, E.

Zayniddinov va boshqa rassomlar uslubining o'ziga xosligini belgilaydi. S. Alibekov, B. Jalolov, F. Boymatov, J. Umarbekov, F. Axmadaliev, A. Nur, B. Muxamedov, B. Ismoilov va bir qator boshqa rassomlar ijodida falsafiy-tahliliy va assostiativ-majoziy yo'nalishlar

o'zining to'la aksini topdi. Aynan shu guruh rassomlar zamonaviy o'zbek rangtasvirining yangi uslubiyatini vujudga kelishida asosiy o'rin egallab, o'ziga xos rang va plastik echimlar, mavzuiy va g'oyaviy o'zgarishlar tufayli milliy rangtasvirning hozirgi bosqichini belgilab berdi.

Istiqlol yillarida ko'p rassomlar jahonning rivojlangan qator mamlakatlar san'ati bilan bevosita tanishishdi. Ular o'z asarlarini jahon tasviriy san'atida fonida ko'rish, tahlil qilish, yangicha izlanishlar olib borish imkoniga ega bo'ldilar. Rassomlar 1980 yillarga kelib, 1930- 70 yillarda andozaga aylangan "qoliplardan" chekinib, yangicha asarlar yaratishga erishishdi. Natijada ayrim rassomlar ijodida ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'ldi. Dunyoning mashhur galereyalarini borib ko'rish, san'at ixlosmandlari bilan bevosita muloqotga kirishish, ijoddan moddiy manfaatdorlik rassomlar ijodida yangi sahifa ochdi. Ko'pgina rassomlarimiz zamonga moslashib, tadbirkorlik yo'lini tutdilar. Buyurtmachilar didiga moslab asarlar yaratdilar. O'zbekistonda ijod qilayotgan rassomlar endilikda milliylikni an'analari bilan uyg'unlashtirishga intilmoqdalar. Xususan O.Qozoqov, V. Oxunov, A. Nur, B. Jalolov, A. Turdiev, K. Odilov kabi rassomlar ijodi shu jihatdan xarakterlidir. Mustaqillikka erishilganidan keyin xalq tarixi, milliy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor ortishi tufayli L. Ibragimov, V. Oxunov, J. Usmonov kabi rassomlar tarixiy voqelikni turli shakl, ramzlarda aks ettirgan asarlar yaratishdi. M. Nabiev sohibqiron Amir Temurning ulug'vor siymosini yaratdi.

2.4. Nafis san'at. Rangtasvir san'ati

Nafis san'at - real borliqni, hayotni, voqea-hodisalarni bo'yoqlar vositasida mato, qog'oz, taxta, kartonlarga ishlanadigan tasviriy san'at asarlariga aytiladi. Nafis san'at asarlarini rangtasvir asarlari ham deyiladi. Chunki, rangtasvir asarlarini moy bo'yoqda, akvarelda, guash, tempera, pastelda ishlanadi.

Nafis san'at turiga moy bo'yoq va boshqa suvda eruvchi ranglarda materiallarga ishlangan manzara, turmush voqealari, jang manzaralari, tarixiy voqealar, jonsiz tabiat to'plamlari /natyurmort/, odamlarning to'la va yarim qomatlari, moy bo'yoq, akvarel, guash va boshqa bo'yoqlarda ishlangan devoriy rasmlar, shuningdek kino-teatr dekorastiyalari uchun ishlangan rasmlar kiradi. Umuman bo'yoq bilan ishlangan barcha turdagi rasmlar nafis san'at yoki rangtasvir asarlari turiga kiritiladi.

Rangtasvir - narsa va voqealarni, real borliqni, insoi tafakkurini, biron-bir g'oyani bo'yoqlar yordamida odamlar ko'radigan holatda ifoda etilishidir.

Voqelikni va borliqni bo'yoqlar yordamida ifodalangan san'at asarlari ham «rangtaevir» - deyiladi. Rangtasvir asarda narsa va voqeani barcha elementlari, ularni perspektivasi, o'rni, rangi, materiali, turish holati, ichki mohiyatini bo'yoqlar yordamida, badiiy obraz va shakllarda ifodalaydi Rangtasvir asarlarida - kompozistiya, ya'ni asardagi narsalarni shakli, tuzilishi, ularni o'zaro bog'liqligi, o'rni va turish holatiga ko'ra aniq, to'g'ri ifodalanishi; kolorit - ranglarni uyg'unligi; ritm - asarni kompozition elementlarni bejirim, tekis, dinamik holatda takrorlanishi; rang kontrasti - bir hil rangni o'z atrofidagi ranglarga mos idrok qilinishi; rang perspektivasi kabi tasvirlash vositalari asosida yaratiladi.

Rangtasvir texnikasi deganda - san'at asarini yaratish uchun zarur vositalarni tayyorlash, undan foydalanish ueul - metodlari tushuniladi. Ma'lumki, rangtasvir asarlarini yaratishda rassom turlicha bo'yoqlardan foydalaniladi. Rassomlik texnikaei uzok tarixga ega bo'lib, u rassomlarning ijodiy izlanishlari bilan rivojlanib takomillashib keldi. Ibtidoiy jamiyatning poleolit davridayoq ishlangan qoyalardagi tabiiy qizil, jigarrang, sariq va qora rangdagi ishlar ma'lum. Antik va

o'rta asr davri rangtasviri tabiiy, mineral va organik bo'yoqlarda yaratilgan san'at asarida yaqqol ko'rinadi.

Rangtasvir asarlari moybo'yoq, akvarel, guash, tempera, pastel, rangli qalamda ishlanadi. XV-XVI asrlardan moybo'yoqda ishlash rivojlandi.

Rangtasvirni amaliy va me'morlik, haykaltaroshlik san'ati bilan bog'liq holda rivojlanishi antik davr san'atining asosiy belgisi bo'ldi. o'rta asrda esa Evropa, Kavkaz, o'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Yaponiyada rangtasvirning qator tur va janrlari rivojlandi. Jahon rangtasvirining uyg'onish davri alohida iz qoldirdi. Chunki, bu davr o'zining ilg'or traditsiyalari, fikr va g'oyalari san'at asarlarida realistik uslubda o'z ifodasini topishi bilan butun san'at tarixiga alohida muqaddima bo'lib kirdi. Uyg'onish davri tasviriy san'ati butun uygonish davrining monumental tarixini yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davrda ijod qilgan Mazachcho, Francheska, Bottichelli, Leonardo Da Vinchi, Mkelanjelo, Rafael, Tistion, Behzod kabi rassomlar va XVIII-XIX asrlarda ijod qilgan Evropa rassomlari Rubens, Loren, Velaskes, Rembrandt, Karavadjo, Sharden, Lui David, Delokuri, Konstabel, Kurbe, Mane kabi rassomlar ijodida rangtasvir san'ati g'oyat rivojlandi.

O'zbekiston hududidan /Teshiktosh g'ori, Zarautsoy, Chust, Sopollitepa, Qizilqir, Varaxsha kabi/ topilgan buyumlar, sopol idishlar va devoriy rasmlar bo'yoqlar bilan ishlanganligi ko'rinadi. O'zbekistonning Zalzchayonda qazib ochilgan saroy devorlaridagi, Zarao'tsoy qoyalaridagi rangtasvirlar miloddan avvalgi va milodning boshlarida shakllangan rangshunoslik bo'yicha ma'lumotlar beradi.

Eramizning boshlarida va Arab istelosigacha o'zbek rangtasviri ancha shakllangan bo'lib, unda hayvonlar, odamlar. va tabiat tasviri o'z ifodasini topgan. Bu Gavr qal'asi, Afrasiyob, Varaxsha devorlaridagi rangtasvirlarda ham o'z ifodasini topgan.

Arablar va musulmon dinini o'rta Osiyoga kirib kelishi bilan o'zbek tasviriy san'atida jonli zotlarni tasvirlanishi qat'iyman etiladi. Shu boisdan VII asrdan boshlab, o'zbek rangtasvirida portret va anamalistik janrlar rivojlanmay qoldi.

Rangtasvirda amaliy va me'morlik san'ati shiddatli rivojlandi. Ma'lumki, VII-X asrlarda Samarqand va Buxoro qog'ozi shuhrat qozondi. Bu rangtasvirni rivojlanishida katta ahamiyat bo'ldi. Ammo mo'g'ul istilosi (XIII-asr) eng avvalo o'rta Osiyo san'ati, madaniyati va fanini er bilan yakson qildi. O'sha davrning eng go'zal, jahonga mashhur Samarqand, Buxoro, Urgench, Xiva, O'tror shaharlarni kulini ko'kka sovurdi.

XV-XVII asrlarda, ya'ni Temuriylar davrida o'zbek tasviriy san'ati yana shakllanib, unda rangtasvir e'tiborga loyiq bo'ldi. Rangtasvir amaliy va me'morlik va kitob grafikasi bilan birgalikda taraqqiy topdi. K.Behzod, M.Muzahhib, A.Buxoriy, M.Samarqandiy kabi taniqli musavvirlar o'zbek rangtasvirini rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. O'zbek rangtasviri tarixiga nazar tashlar ekanmiz, undagi portret va anamalistik janrning man etilishiga qaramay o'ziga xos yo'nalishda rivojlanganligi kitob grafikasida va devoriy rangtasvirlarda yaqqol ko'rinadi.

Sovetlar davrida o'zbek rangtasviri yangi yo'nalishga kirdi va u o'ziga xos yo'nalishda rivojlandi. Uning barcha janrlari: portret, manzara, natyurmort, maishiy, tarixiy janrlar va amaliy san'at yangi mazmun, mohiyat va xarakterda taraqqiy etdi. O'zbek rangtasvirini shakllanishi va rivojlanishida L.Bure, A.Nikolaev, P.Benkov, U.Tansiqboev, P.Abdullaev, A.Abdullaev, N.Qoraxon, Ch.Axmarov, M.Nabiev, R.Choriev, R.Axmedov, B.Jalolov, J. marbekov, M.Saidov, Z.Inogamov kabi rassomlar katta xizmat qildilar.

Mustaqillik yillarida o'zbek rangtasvirining keksa ijodkorlari R.Choriev, R.Axmedov, M.Nabiev, N.Qo'ziboev, B.Boboev kabilar bilan birga B.Jalolov, J.Umarbekov, I.Turg'unazarov, Yu.Taldikin, V.Burmakin, S.Alibekov, Akmal Nur, L.Ibragimov, T.Kuryazov, A.Ikromjonov, V.Oxunov kabi yuzlab yosh rassomlar ijod qilmoqdalar.

Rangtasvir asarlar o'zining yaratilish metodi, uslubi, maqsadi va vazifasiga ko'ra bir mecha turlarga bo'linadi.

1. Monumental rangtasvir - arxitektura me'morchiligi bilan bog'langan holda, jamiyat hayotidan olingan voqealarni ifodalab, umumtarbiyaviy vazifani bajaradi.

Bunday asarlar asosan umumiy xarakterda bo'lib, uzokdan ko'rinishga moslashtiriladi va mo'ljallab ishlanadi. Shu boisdan ular bino devorlariga yoki biron satxga bo'yoqlar asosida ishlanadigan devoriy rasmlar va rangli toshlar, sopol, shisha, oyna kabi materiallar vositasida ishlanadi. Monumental rangtasvir ishlari haykaltaroshlik kompozistiyalari bilan ham ishlatiladi. Bunda ishlanadigan haykalni ulug'vorligini, go'zalligini oshirishda foydalaniladi. Monumntal rangtasvir hozirgi kunda san'at saroylarini, vokzallarni va metro stanstiyalarini bezatishda ishlatilmoqda.

2. Dastgohli rangtasvir - maxsus tayyorlangan ramkaga tortilgan material mato /xolost/ yuzasiga bo'yoqlar yordamida ifoda etilgan san'at asridir. Bu asarlar maxsus stanokda yoki molbert deb atalgan qurilmada ishlanadi, shu boisdan bunday asarlarni dastgohli asarlar, ya'ni dastgohli rangtasvir deyiladi.

3. Dekorativ rangtasvir - asosan bezatish vositasida qo'llanib, me'morlik va amaliy san'at bilan bog'liq holda ishlanadi. Bu san'at asosan bezag san'ati bo'lib, undagi tasvirlar ham ko'proq dekorativlashtirilgan holatda ifodalanadi. Bu san'at naqqoshlik, sahnalarni bezatish, kino san'ati va teleko'rsatuvlarini bezatipsha keng qo'llaniladi.

2.5. O'zbekistonda tasviriy san'at va kompozitsiya maktablarining rivojlanish tarixi

Inson tarixidagi ilk tasvirlar grafik yo'lda, toshlarga, g'or qoyalariga chizilgan. Zarautsoy g'oridan topilgan tasvirlar bunga misol bo'la oladi. qadimiy tasvirlardan Zarafshon etaklaridagi "Sarmishsoy" qoyalarida yovvoyi buqalar, bug'ilar, tog' echkisi, to'nqiz, bo'ri, qoplon va bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi hayvonlar, ov manzarasini tasvirlarini ko'ramiz. Bu tasvirlarda odamlar har bir fikrni, his-tuyquni ifoda etishga harakat qilganlar.

Qadimgi odamlar turli dinlarga e'tiqod qilganlar va o'z e'tiqodlarini qondirish maqsadida haykallar yaratishgan. Bizgacha loydan, tosh, yog'och, suyaklardan yasalgan namunalar saqlanib qolgan. Bu o'tmish tasvir tasvirlari O'zbekiston tasviriy san'ati uchun ham ishonchli va muhim namunalardir.

Sharq o'tmishining madaniy markazlaridan bo'lgan Afrosiyob, eramizdan avvalgi VII asrga oid san'at namunalarini aks ettiruvchi maskandir. Miloddan avvalgi 329-337-yillarda Iskandar qo'shinlari Markaziy Osiyo xududlarini bosib olgani tarixdan ma'lum Iskandar Yunonistondan Markaziy Osiyoga kelguncha qadar bosib olgan yerlarida yunon tili, madaniyati va dinini targ'ib qilgan. Natijada mahalliy xalqlar tasviriy-amaliy san'ati bilan ellenlar san'ati o'rtasida uyg'unlashuv boshlangan. Bu uyqunlik uzoq davom etib, ellenlarga xos haykaltaroshlik, devoriy rasmlar, amaliy san'at namunalari, jumladan me'morchilikda paydo bo'la boshlaydi. Afrosiyob xarobalaridan qazishmalar paytida Iskandar surati chizilgan qimmatbaho tosh topildi. Tosh tirnoq hajmida bo'lib, u Iskandar lashkarboshlarining Samarqandni istilo etish vaqtida yo'qotgan oltin uzukning ko'zi bo'lsa kerak. Ana shu toshga tushirilgan Iskandar rasmiga ikki didema kiydirilgan. Rasmdagi diademaning chekkasidan ikkita shoh bo'rtib chiqib turibdi. Bu topilma hozir Samarqanddagi Respublika san'at muzeyida saqlanmoqda.

Mahalliy ustalar va rassomlar yasagan kulolchilik buyumlarida, tanga va taqinchoqlar, turli ko`rinishdagi haykallarda ham ellenistik an`analar alomatlari mavjud.

Kushon podsholigi bu aslida siyosiy tushuncha bo`lib, uning juqrofiy nomi Baqtriya deb ataladi. Bu hududdan topilgan haykalchalarda sevgi, oilaviy baxt, serhosillik kabi g`oyalar olg`a suriladi. Arxeologik izlanishlar jarayonida Buddaning tik turgan holatidagi, chordona qurib o`tirgan haykallari topilgan. Bu davrda budda ibodatxonalar yaratilishi, o`z navbatida, buddizmga xos badiiy bezaklar ishlanishiga sababchi bo`lgan. Kampir tepadagi "Budda", Dalverzin tepadagi "Devatto boshi" kabi haykallarda yuz qismiga tegishli ko`z, burun, lablardagi shakllar hamda holatlar proportsional muvozanatlarga javob beradi. Darverzintepadan topilgan boshiga toji kiygan Kushon shahzodasi va boshqa o`nlab haykallarni misol keltirish mumkin.

1965-yili O`rta Osiyo mintaqasida madaniy merosimizni o`rganishda olamshumul voqea yuz berdi. Olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida Samarqandning qadimiy o`rnida (eramizdan avvalgi VII asrga oid) Afrosiyob nomi bilan devoriy rang tasvir nafis - namunalari ochildi. Bunday rang-barang rang tasvir san`atining mavjudligi san`at yuqori darajada rivojlanganidan darak beradi. Afrosiyob rang tasvir san`atining eng xarakterli namunasi shoh saroyi ko`rinishiga xosdir. Arxeolog olimlar V.A. Shishkin, Ya.q. G`ulomov, L.I. Al'baumlarni fikricha eng mahobatli devor rang tasviri markaziy shoh saroyida joylashgan.

Saroy kvadrat shaklida 11x11 metr, devor balandligi 2 m. Bu devorlardagi rangtasvirlar har xil holatda saqlangan. Devorni janubiy qismidagi tasvirlar yaxshiroq saqlangan. Tasvirda tomoshabindan chap tomonga qasrga qarab borayotgan tantanali yurish marosimi ko`rsatilgan. Janubiy devorni boshidan oxirigacha go`zal liboslarda kiyingan fil, tuya, otlardagi ustidagi chavandozlarni tasvirini ko`ramiz. Oq filda karvonni boshlab borayotgan Malika o`tiribdi. Orqasida sayrda hamroh bo`ladigan xizmatkori otda malikani uchta yaqin ayollari, ulardan keyin ikkita tuyani birida ingichka mo`ylov, qora soqolli oq suyak

navqiron yigit, ikkinchisida oq soch-soqol mo'ylovli, katta ko'k ko'zli qoramag'iz keksa tasvirlangan. Ularni qo'llarida saroy axllarini bildiruvchi qamchin va bellarida uzun qilich, kalta xanjar libosida, keyin oq qushlarni kuzatib borayotgan oqzilari bog'langan ikki erkak tasvirlangan. Ulardan keyin sariq otda o'tirgan ulkan chavandoz, oq qush tasviri tushirilgan, bezakli qizil chakmon libosida belbog' belida oltin kamarda qilich o'q-yoy anjomlarida o'tirgan shahzoda tasvirlangan. Filning ustiga maxsus mo'ljallangan yopchiqdagi tasvirlar kishini beixtiyor o'ziga jalb etadi. Filni ustida bezatilgan yopchiqda qanotli sher tasvirini ham ko'ramiz. Sharq xalqlariga xos latofatli go'zallikka ega bo'lgan ayol qiyofasi, liboslaridagi rais va shakllar nafis ifodalangan.

Devorni harbiy qismida qimmatbaho bezakli liboslardagi uch bahodir (kishini) aks ettirilishi, bo'yniga chiroyli taqinchoqlar taqilgan afsonaviy qushlar tasviri o'z aksini topgan. Devorni Sharqiy qismida moviy ko'k devor fonida ikki erkak qo'llarida meva shoxlari bilan tasvirlangan. Bu erda arxeologlarning fikricha, ovdan keyingi dam olish payti ifodalangan. Tasvir, rang surtmalari yaxshi saqlanmagan. Ammo suv to'lqinida suzayotgan baliq toshbaqa o'rdak, yosh bola tasvirini aniqlash mumkin. Rassom chegarali ranglarda: qora, oq ko'k, sariq, qizil, jigar ranglardan foydalangan. Shunga qaramay ranglarda katta mahorat bilan ishlangan, har qanday san'at ustasini ham o'ziga jalb qila olishi tabiiydir. Kompozitsiyaning rangga boy qilib tasvirlanganligidan Afrosiyob tasviriy san'ati nihoyat yuqori darajada badiiy yutuqlarga ega ekanligini ko'ramiz. Bu esa tasvir sirlarini yaxshi bilgan tajribali musavvir mahoratidan darak beradi.

Termiz yaqinidagi Bolaliktepa Yodgorligidan topilgan hashamatli saroy devorlarining to'rtala tomoni ham turli ko'rinishidagi rangli tasvirlar bilan to'ldirilgan. Bolaliktepa rangtasvir san'atida odamlarning kayfiyati, o'zaro munosabatlari, xarakterlari rassom tomonidan ustalik bilan tasvirlangan. Odamlarning qo'llarida qadaqlarning tasvirlanishi, bir-biriga bo'layotgan samimiy iltifotlar, orqa plandagi elpiqich ushlab turgan xizmatkorlar, to'yona holatdagi ziyofat bazmi ifoda etilgan. Bolaliktepa qasri devoriy suratlarida inson qiyofasi

ko'p ifodalanganligi bilan ahamiyatlidir. Suratlardagi inson qiyofasi ichki-kechirmalarini nozik tasvirlanishi o'sha davr rassomlarini serfikir darajasini bildiradi.

Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan biri - Varaxshadan ham devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Saroyning devorlari surat bezaklar, rangli naqshlar bilan bezalgan. Shu bilan birga o'rta farq qiladigan tomonlarini ham kuzatish mumkin. Devoriy rasmlardan birida fil mingan o'rta yoshli kishi obrazi, bir oyoqi uzangida, bir oyoqi esa bukilgan holatda tasvirlangan. Bundan tashqari, rasmda arslonga o'xshash haybatli hayvonning filga hamla qilgan holatidagi tasviri ham aks ettirilgan. Shuningdek Varaxshaning boshqa devoriy rangli suratlarida podshoning qabul marosimiga baqishlangan hashamatli ko'rinishlari o'rin olgan. Umuman tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan va o'zgacha ma'no kasb etadi. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida islom dini kelganga qadar g'oya, fikr, shuningdek e'tiqodning barcha ko'rinishlarini faqat tasvir orqali ifodalangan dinlardan biri monuviylik hisoblanadi. Uning asoschisi tasviriy san'atning buyuk vakili Moniy edi. Moniy asli Markaziy Osiyo, jumladan, qadimiy Samarqandda yashab ijod etgan. Uning ta'limoti monuv dini bilan bog'liq tasviriy san'at maktabi yuzaga keladi. Arab bosqinchiligidan so'ng Moniy maktabining vakillari Qashqarga ketib qolishgan. Bu davrda ham tasviriy san'at o'z moqiyati jihatidan islom dini g'oyalari bilan boyidi va rivojlandi. Saqlanib qolgan qo'lyozma kitoblar dalolatlariga ko'ra asosan tasviriy san'at kitob san'ati bilan bog'liq holda keng taraqqiy etadi.

IX-XI asrlarda Somoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar imperiyalari vujudga kelib, ularning Markaziy shaqarlari Buxoro, G'azna, Marv, Nishopur kabi joylar madaniyat va san'at markaziga aylandi. Ana shu davrda Beruniy, Ibn Sino, Xayyom, Maxmud Qoshqariy, Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy kabi allomalarning kitoblariga musavvirlar tomonidan badiiy bezaklar, miniatyura tasvirlar ishlangan.

XIV-XV asrlarga kelib O`rta Osiyoda qo`lyozma kitoblarning qayta ko`chirilishi natijasida miniatyura san`ati rivojlandi. Rassom miniatyura tarixiy voqealarni to`qri aks ettirishga, odam qiyofasini, yuzini to`qri tasvirlashga harakat qilar edi. Miniatyura asarlarida Iskandar Zulqarnay va Sulton Sanjar portretlari ana shunday tarzda tasvirlangan. Bizgacha etib kelib, hozirda Parijdagi milliy kutubxonada aqalanayotgan, XIV asrga mansub Rashid - ad - Dinning Maqolalar to`plamiga ishlangan miniatyura (mo`jaz san`at) portretlari O`rta Osiyoda qadimgi tasviriy san`at asarlari hisoblanadi.

XVI asrga kelib Samarqandd Amir Temurning "Bogi-Shamol", "Boqi-Dilkusho" saroylari devorlariga, harbiy yurish, jang va ov marosimlarida Temurni uz kanizaklari, Amir, shaxzodalari bilan o`z davrining miniatyurachi rassomi Axmad- Boqi- Shamol tomonidan tasvirlangan.

Ulug`bek zamonida tasviriy san`at yana rivojlangan. 1437-yillarda Abduraxmon as-So`fi yaratgan "Astronomiya trakgati"cha ishlangan miniatyurada yulduzlar tasviri mavjud. Rangli tasvirlarda umumiy fonda yulduzlarni tuzilishi va joylashishi nomlari bilan aks ettirilgan. Abrurazzoq Samarqandiy Mirzo Ulug`bek rasadxonasining xonalari devorlarida to`qqiz osmonning ko`rinishi, osmon gumbazlari darajalari, minut va sekundlar, etti yirtqich sayyora, yulduzlar, iqlimlar, tog`, dengiz, sahro va shularga oid buyum va jonivorlar surati g`oyat nafis va jonli tasvirlanganini tarixchilar yozadi.

O`rta Osiyo miniatyura san`atini gullab rivojlanishi XV asrda boshlanadi. XV asrni ikkinchi yarmida Xirof Husayn Bayqaro saltanatida ulug` o`zbek shoiri Alisher Navoiy rahnamoligida taraqqiy etgan madaniyat o`choqiga aylanadi. Hirot adabiyot va san`at namoyondalari ichida K. Behzod erkin yulduz bo`lib yarqiradi. Ulug` miniatyurachi musavvir o`z zamondoshlari: Sulton Husayn Boyqoro, Shayboniyxon, shoirlar Jomiy, Xatefi, kabilarni ajoyib portretlarini chizib bizlarga meros qilib qoldirgan. Portretlar chuqur ruhiy holatlari bilan ajralib turadi. Sulton Husayn Boyqaro portreti tashqi qiyofasi xarakteri haqida Bobur o`z xotiralarida shunday ta`riflaydi: u ma`noli qarab turgan, mahobatli, gavdasi kelishgan bamisoli

sher, belidan pasti ingichka. U sergap, xushchaqchaq Xurosonda 40-yil davomida davlatpanoh bo'lgan, Behzod o'zbek xoni Shayboniixon portretini 1507-yili Xirot olingandan keyin yaratdi. U ulug' sarkarda davlat arbobi, ilmi olim., adabiyot va san'atni nihoyatda ulug'laydigan shaxs edi. Xon kalta yengil oddiy holatda boshida salla, chordona qurib o'tiribdi. Ogir vaznli, to'qri nigoqli qo'li tizzasida yuz qiyofasida matonatli katta qalb egasi siymosida tasvirlangan.

Behzod portretlari yaxlit ranglar bilan tasvirlangan. Chiziqlarni aniq va plastik to'zilish xususiyatlari Shayboni - xonni barvasta qudratli elka a gavda qiyofasini ifodalab beradi.

Shaybonixonni portretida inter'erdagi siyog'don kitob, qamchin katta o'ng barmoqidagi uzuk kabi predmetlar tomoshabinga ulug' sarkarda qiyofasini ochib berishda, boyitadi. Kamoliddin Behzod o'z asarlarida o'sha davrda portret miniatyura san'atini cho'qqisiga erishdi. Xusayn Boyqaro qarorgohida miniatyura san'atida boshqa rassomlar ham ijod qilgan. Tarixchi Xondamir 1498 y o'zining "Xulosat Al' -Akbar" risolasida rassom Qosim - Alini asrimizning qaymoqlari, nozik asar mualliflarining sardori deb baholagan edi. U san'at sir asrorining Xusayn Boyqaro kutubxonasida uning raxnamoligida egallagan edi. Shaybonixon saroyida Behzodning qobiliyatli shogirdlaridan biri Maxmud Muzaqqib (Muzaqqib oltin bilan bezovchini anglatadi) o'z ustozidan eng yaxshi fazilatlarini tasviriy vositalarda yaxlit ifoda etishni o'rgandi. Uning dastlabki qammaga ma'lum A. Navoiy portreti (XVI asr) misol bo'lishi mumkin. Mo'ysafid yoshlardagi shoir, hassaga tayanib turgan xolda tasvirlangan. quvginlikda, amirlik, davlatni boshqarish ishlarida sochlari oqarib irodasi sayqal topdi.

"Men keksaysam ham tanam tetik, mening so'zlarim xano'z qilich kabi o'tkir" degan edi. Alisher Navoiy Maqmud Muzaqqibni miniatyura asarida uluq Alisher qiyofasida, soch, soqollari oqargan, biroz gavdasi engashgan, tugalmas qayotiy kuch, o'tkir nigoh, labdagi engil tabassum, shoirning xalqparvar, "gumanist", mutafakkir inson ekanidan dalolat beradi. Kompozitsiya jiqatidan bu

portret miniatyura san`atida o`ziga xos xususiyatga ega, uning nozik qiyofasi xayotiyligi, ko`z - qoshlari harakatlarida ifoda etilgan.

XVII asrda bir xil O`rta Osiyo rassomlari o`z vatanidan uzoqda miniatyura san`atida ananalarni davom ettirdilar. Rassom Davlat Muxammad Xindistonda Boburiylar saroyida sulton va ularni oilalarini, saroy amirlarini, shoirlarining portretlarini yaratdi. Shu davrda Xindistonda Muqammad Murod Samarqandiy Bobur saroyida ijod qilib, portret ustasi nomini oldi. Miniatyurachi rassom tashqi dunyodagi qariqatni - kuzatib qayotni tasavvurlari asosida kompozitsiyaning ma`lum qonun qoidalariga amal qilgan holda asar yaratdi. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, O`rta osiyo va O`zbekiston xalqlarinè o`tmishda qoldirgan boy madaniy va estetik merosiga qaramay, tarixiy ob`ektiv sharoitlar sababli realistik tasvir san`ati o`z shaklini topmadi. XIX asr 60-yillari Urta Osiyoga, Rus ilgor realistik san`ati o`z ta`sirini ko`rsata boshladi. Tashrif buyurgan rassomlar o`z asarlarida erli xalq va tabiatni tasvirladilar.

Turkistonda birinchi bo`lib ijod qilgan rassomlar ichida "Turkiston turkumi" suratlarini yaratgan ijodkor V.Vereshagin hayotni kuzatuvchisi sifatidir etnografik hayot farzini chuqur o`rganiá etyud va eskizlar bajarish natijasida har xil mavzuda asarlar yaratdi. Uning "Balog`atga etmagan bola savdosi", "Zindon", "Nashavandlar" shular jumlasidandir. Uning tarixiy janrdagi yaratgan eng katga asari "Tantana qilmoqdalar", deb nomlanadi. Registon maydonida bo`lib o`tayotgan bu marosimda Mustaqillikka qarshi yurish qilgan kuchlar ustidan qozonilgan g`alaba tantanasi o`z ifodasini topgan.

Kompozitsiya jihatidan ko`p figurali, ko`p planli bu asarda oddiy fuqaro, darveshlar,otda yuzboshi sarbozlar, ularni bo`lib o`tayotgan tantanaga psixologik munosabatlari, milliy liboslari aks etgan quyoshning yoruq shu`lasida Samarqand tabiati iliq gammada tasvirlab berilgan.

III. Xulosa

Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi».

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq: «Biz hamma bilimlarimizni aqliy fikrlar bilan mustaxkamlab bormog'imiz lozimki, shunda ikkilanishga ham, esdan chiqishga ham imkon qolmaydi».

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovski aytib o'tganidek: «San'atni o'rganayotganlar tasvirlashni yo'llari va usullari, ya'ni narsalarni shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburlar».

Tasviriy san'atning tarixi, rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Evropa singari Rus badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga etarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda kasb mahorati, yorug'-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekamu ko'st yoritib bera oladi deb bo'lmaydi. Gap shundaki, talaba

buyum va narsalarni o'ziga xos ranglarini va ularni yorug'lik ta'sirida o'zgarishlarini ko'rib tushunsa ham rangtasvirchi rassom bo'la olmaydi, chunki rangtasvirni umumiy qonuniyatlari (ranglar nisbati, issiq va sovuq ranglar, kolorit ranglar uyg'unligi) mavjud. Bir qancha rassomlarni tarbiyalagan, ajoyib pedagog-rassom D.N.Kardovskiy aytganki: «naturada ham, ishni boshqarishda ham asosiy e'tibor shunga qaratilishi kerakki, butun darsni o'tish jarayonida ranglar nisbatini hisobga olish zarur... Doimo rang munosabatlari bilan ishlash va fikrlashga o'rganish kerak».

Ta'lim olish jarayonida biz talabalar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari-rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashimiz lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim, ular rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yuzasida xajmli buyumlarni fazoviy joylashuvi, tasvirlash qoidalari, soya-yorug'lik qonuni, qo'yilmani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir.

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit tasirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

Mustaqillik yillaridagi tashkil etilgan ko'rgazmalardan shu narsa ko'rindiki, bu davr rassomlarni ijodiy erkinlik davri bo'lib, asarlarni mavzusi, syujeti, g'oyasi, kompozitsion echimi, rang uyg'unligi – koloritlarni g'oyat kengligi, badiiy uslublardagi mustaqillik, shijoat va ijodkorlik tuyg'ulari bilan mutloq yangilanish ko'rinib turdi. Mamlakatimizning o'nlab viloyat va shaharlarida to'xtovsiz san'at asarlari ko'rgazmasi muntazam holda o'tkazib kelinmoqda. Bular mamlakatimiz rassomlarini ijod va ilhom hisobotlari bo'lib, san'atimiz ravnaqidan dalolat beradi.

V.ILOVALAR



Bahodir Jalolov








Image: 1024 x 803 (231.25 Kb)



Image: 496 x 768 (91.01 Kb)





V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Enstiklopediyasi "J" harfi
2. Boymetov B. "Qalamtasvir". Darslik 1-qism. Toshkent, 2006
3. Abdiraslov S., Tolipov N. "Rangtasvir" Toshkent , 2005.
4. Tolipov N., Abdiraslov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.
5. Abdiraslov S., Tolipov N., Oripova N. "DastgoHli rangtasvir" (2qism). T., 2003.
6. Tojiev B. "DastgoHli rangtasvir" fanidan ma'ruzalar matni. T., 2000.
7. Tolipov N. Abdiraslov S. "DastgoHli rangtasvir"-Toshkent. 2005.
8. Tojiev B. "Qalamtasvir asoslarini o'rganish". Toshkent 1994.